

“O‘zbektelekom” AKning 2025-yil faoliyati to‘g‘risidagi hisobot

“O‘zbektelekom” AKning strategiyasiga muvofiq 2025-yilda mobil tarmoqni rivojlantirish, keng polosali internet tarmoqni takomillashtirish, abonentlarga qulayliklar yaratish uchun yangi tariflar ishlab chiqish va ISO standartlarini joriy qilish va ESG tizimini joriy qilish ishlari amalga oshirildi.

“O‘zbektelekom” AK GSM standartida taqdim etilayotgan xizmatlari uchun abonentlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratilgan yangi narxnoma tasdiqlandi.

GSM standartidagi mobil aloqa abonentlari uchun bir qator aksiyasilar o‘tkazildi. Aksiya doirasida bonusli qo‘shimcha SIM-kartalar taqdim etilgan. Bonusli qo‘shimcha SIM-karta uchun 1-oy abonent to‘lovi bepul qilib berilgan. Shuningdek, qimmatbaho so‘vrinlar abonentlar orasida aksiyalar o‘tkazilgan. 70 (GSM) kodi nomerlar faoliyati ishga tushirilgan. Ayrim toifadagi mobil aloqa raqamlarga 99% gacha chegirma taqdim etildi.

Hisobot davrida Kompaniyada ISO 14001 Ekologiya menejment tizimi, ISO 26000 Ijtimoiy ma’suliyat menejment tizimi, ISO 45001 Sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi menejment tizimi va ISO 50001 Energiya menejment tizimlari bo‘yicha integratsiyalashgan menejment tizimlari joriy qilindi va sertifikatlashtirish bo‘yicha tashqi audit o‘tkazildi. Audit natijasiga asosan xalqaro muvofiqlik sertifikatlarini qo‘lga kiritdi.

Kompaniyaga Sustainable Fitch xalqaro reyting agentligidan level 2 (73) ball ESG reytingi berildi.

Kompaniyada qabul qilingan ichki normativ hujjatlar yuridik va korrupsiyaga qarshi kurashish ekspertizalardan o‘tkazildi. Kompaniya tashabbusi bilan o‘z faoliyati hamda sohani takomillashtirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmadi.

Kompaniyada kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi.

Kompaniya xizmatlarini sotish, sifati va hajmini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar

Kompaniya filiallari tomonidan ko‘rsatilayotgan Kompaniya xizmatlarini sotish, sifati va hajmini oshirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Hisobot davrida jami 445 ta yangi savdo nuqtasi ishga tushirildi, bu esa hududiy qamrovni oshirish hamda mijozlarga yanada qulay xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratildi;

- Zamonaviy uslubda jihozlangan, yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan “Mono” toifasidagi savdo nuqtalari soni ham oshdi. Xususan, 2024-yilda bunday savdo nuqtalari soni 12 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda ularning soni 37 taga yetdi.

- “O‘zbektelekom” AK eng yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan 9 ta sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislari tubdan yangilanib mijozlarga o‘z eshigini ochdi;

- Mehmonlari hamda biznes vakillari bir tashrifning o‘zidayoq “O‘zbektelekom” AKning barcha xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu yerda mobil aloqa va uy internetidan tortib, ilg‘or bulutli texnologiyalar hamda xavfsizlik tizimlarigacha ulanish imkoniyati yaratildi;

- 2025-yilda Kompaniya tomonidan ko'rsatilayotgan Internet xizmatlari bo'yicha daromad 19,9%ga, Mobil aloqa xizmatlari bo'yicha daromad 17,3%ga oshishiga erishildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PQ-262-son qaroriga muvofiq "O'zbektelekom" AK Futbol assotsiatsiyasiga Futbol maydonlariga VAR tizmiga ulanish bo'yicha 14 ta asosiy va zaxira ob'yektlariga 150 mbit/s tezlik bo'yicha VPN tarmog'i ulandi;

- "O'ztemiryo'l yo'lovchi" Aksiyadorlik jamiyati, O'zbekiston Respublikasi Fermerlar kengashi, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasilarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i (MSPD)ga ulab berilganligi, O'zbekiston Respublikasi Sport Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi "O'zbekzargarsanoati" uyushmasi, O'zbekiston Musulmonlar Idorasi, O'zbekiston Gimnastika Federatsiyasi gimnastika sport turlari bo'yicha xalqaro sport tadbirlariga yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulab berildi.

Kompaniyada amalga oshirilgan investitsiya loyihalari

- "O'zbektelekom" AK tomonidan 2025-2030-yillar uchun belgilangan Investitsiya dasturlari doirasida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2025-yilda jami 215,31 mln. AQSh dollari o'zlashtirildi, shundan 187,46 mln. AQSh dollari xorijiy kreditlar va 27,85 mln. AQSh dollari ekvivalentida "O'zbektelekom" AKning o'z mablag'lari.

- Davlat kafolati ostida Yaponiyaning JBIC va MUFG banklari kredit mablag'lari hisobidan 2022-2026-yillarda umumiy qiymati 157,36 mln. AQSh dollari bo'lgan 3 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan va 2025-yil 21,43 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar o'zlashtirildi;

- "O'zbektelekom" AK tomonidan 2025-2030-yillarda "Respublika hududlarida "Jamoat xavfsizligi" hamda "Aqlli shahar" konsepsiyalarini tatbiq etishda "O'zbektelekom" AKning mobil va simli ma'lumotlarni uzatish tarmog'i infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Kompaniyaning 2024–2025 yillar biznesni rivojlantirish va tahlil bo'yicha hisobot

Abonentlar bazasini rivojlantirish bo'limi tomonidan mijozlar bazasini kengaytirish, daromadlarni oshirish hamda analitik vositalarni joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Kross-sotuv loyihalari, maqsadli SMS kampaniyalari, churn (ketish ehtimoli) modeli ishlab chiqildi, vizual analitik panellar yaratildi va segmentatsiya asosida ishlash yo'lga qo'yildi.

2025-yilda kompaniyada mobil aloqa va internet yo'nalishlari bo'yicha rejalashtirilgan KPI ko'rsatkichlari bajarildi. Umumiy daromad rejasining bajarilishi – 101,3%.

Kompaniya marketing faoliyatli bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Internet xizmatlari abonentlari – jismoniy shaxslar uchun yangi "Oddiy" tarif rejasi joriy etildi. Yuridik va jismoniy shaxslar uchun "10 G" nomli yangi tarif rejasi joriy etildi. Bu tarif reja internet tarmog'iga 10 Gbit/s tezlikda yuqori tezlikdagi ulanishni ta'minlaydi. Jismoniy

shaxslar uchun “Wi-Fi routingizni yangilang” aksiyasi o‘tkazildi. Aksiya doirasida abonentlarga eski routerlarini yangi avlod qurilmalariga almashtirish imkoniyati taqdim etildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun mo‘ljallangan keng polosali internet tarmog‘iga ulanish xizmatlari bo‘yicha yangi “IJTIMOIY 2.0” va “IJTIMOIY 3.0” tarif rejalarini joriy etildi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun keng polosali Internet tarmog‘iga ulanish xizmatlariga “YAKKA TADBIRKOR” tarif rejalarining yangi to‘plam joriy etildi.

Yuridik shaxslar uchun internet tarmog‘iga ulanish xizmatlari bo‘yicha “Biznes uchun ko‘proq tezlik” aksiyasi o‘tkazildi. Aksiya davomida barcha abonentlar uchun internet tezligi 100 Mbit/s gacha oshirildi. Shu bilan birga yangi tarif rejalarini Business Prime, Office Day Start va Office Day Pro joriy etildi. Yangi tariflarda 100 Mbit/s va undan yuqori tezlikdagi yuqori sifatli Internet tarmog‘iga kirish, shuningdek qo‘shimcha xizmatlar - videokuzatuv va TELECOM TV taqdim etildi.

Teznet Business, Business Unlim, CORPORATE va U2B seriyalariga mansub arxiv tarif rejalariga o‘zgartishlar kiritildi. Mazkur o‘zgartishlar doirasida Internet tarmog‘iga ulanish tezligi oshirildi, qo‘shimcha xizmatlar - videokuzatuv va TELECOM TV qo‘shildi, shuningdek abonent to‘lovi miqdorlari oshirildi.

Internet xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy abonentlar uchun “Foydali” aksiyasi o‘tkazilmoqda. Aksiya doirasida FOYDALI 1+/2+/3+/4+ yillik tarif rejalariga ulanuvchi yoki ushbu tariflardan foydalanayotgan abonentlar uchun abonent to‘loviga 10 (%) foiz miqdorida chegirma taqdim etiladi.

Internet xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar uchun “Bayramona 2026” aksiyasi o‘tkazildi. Aksiya doirasida Internet xizmatlarini Hammasi birga 3/3+/4/5 tarif rejalariga ulaganda, abonentlarga birinchi oy davomida bepul bo‘lgan “Bayramona Salom” tarif rejasiga ega bonusli SIM-karta olish imkoniyati taqdim etildi.

2025-yilda “O‘zbektelekom” AK GSM standartida taqdim etilayotgan xizmatlar uchun abonentlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratilgan yangi narxnoma tasdiqlandi.

GSM standartidagi mobil aloqa abonentlari uchun “V-Mobile” aksiyasi o‘tkazildi. Aksiya doirasida “V-Mobile” tarif rejasiga ulanishda abonentlarga “Bonus-Mobile” tarif rejasiga ulangan raqam bilan bonusli qo‘shimcha SIM-karta taqdim etildi. Bonusli qo‘shimcha SIM-karta uchun 1-oy abonent to‘lovi bepul qilindi. Shuningdek, abonent to‘lovini ikkinchi va uchinchi davrlari uchun abonent to‘lovini o‘z vaqtida amalga oshirgan abonentlarga qo‘shimcha Internet-paketlar taqdim etildi.

GSM standartidagi mobil aloqaning jismoniy va yuridik shaxslar bo‘lgan abonentlari uchun “8 GB”, “21 GB” hamda “10 GB” aksiyalari o‘tkazildi. Aksiyalar doirasida abonentlarga amal qilish muddati cheklangan Internet-paketlarni maxsus narxda faollashtirish imkoniyati berildi. Aksiya doirasida 2025 yil 7-martdan 10-martgacha bo‘lgan davrda “8 GB” paketi, 20-martdan 23-martgacha esa “21 GB” paketi, 28-martdan 2-aprelga qadar “10 GB” faollashtirish uchun mavjud edi.

70 (GSM) kodi nomerlar faoliyati ishga tushirilgan. Ayrim toifadagi mobil aloqa raqamlarga 99% gacha chegirma taqdim etilgan.

Mobil Internet orqali ajratilgan servislardan cheksiz foydalanish uchun “UNLIM Non-Stop” qo‘shimcha xizmatiga o‘zgartirishlar kiritildi.

Mobil Internet orqali ajratilgan servislarga kirish uchun “UNLIM” qo‘shimcha xizmatiga qo‘shimchalar kiritildi.

“Ideal juftlik” aksiyasi o‘tkazildi. Aksiya doirasida “Mobile Ideal” tarif rejasiga ulanishda abonentlarga “Bonus Ideal” tarif rejasiga ulangan raqam bilan bonusli qo‘shimcha SIM-karta taqdim etildi. Bonusli qo‘shimcha SIM-karta uchun 1-oy abonent to‘lovi bepul, keyingi oylardan boshlab abonent to‘lovi har bir raqam uchun alohida hisoblanadi. Shuningdek, abonent to‘lovini ikkinchi va uchinchi davrlari uchun abonent to‘lovini o‘z vaqtida amalga oshirgan abonentlarga har bir raqam uchun alohida qo‘shimcha Internet-paketlar taqdim etildi.

Quyidagi aksiyalar o‘tkazildi:

“Chiroyli raqamlarga chegirma”

“e-Car Bonus 10 paketi”

“4G Cloud Phone”

“Ideal juftlik”

1-oktyabr - Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan “10 GB” aksiyasi

“Telefon aloqasi uchun chiroyli raqamlarga chegirmalar” aksiyasi o‘tkazilmoqda. 4-9 toifadagi raqamlarga 99% chegirma berildi.

“GSM UZTELECOM” mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar, shuningdek, “Mobil budjet” xizmatini faollashtirgan yuridik shaxslar uchun “MyUZTELECOM — Advent-kalendar” aksiyasi o‘tkazildi.

Mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar uchun “Bayramona 2026” aksiyasi o‘tkazildi. Aksiya doirasida mobil aloqa xizmatlarini “Bonusli Salom Mobile” tarif rejasiga ulagan abonentlarga 30 kun amal qilish muddati bilan “Bayramona 100 GB” bonus internet-paketi taqdim etildi.

Mobil raqamini saqlab qolgan holda aloqa operatorini o‘zgartirish imkonini beruvchi “MNP” (Mobile Number Portability - mobil raqamni ko‘chirish) xizmatidan foydalanish bo‘yicha aksiya o‘tkazilmoqda.

“MyUZTELECOM” mobil ilovasidan foydalanuvchi abonentlar uchun “Mobil bonuslar” aksiyasi bo‘yicha bonusli Internet-paketlar taqdim etish muddati 31 dekabrga qadar uzaytirildi.

Ilova orqali “Jamoat transporti uchun to‘lovni amalga oshirish” xizmati ishga tushirildi.

Foydalanuvchilar “MyUZTELECOM - Advent-kalendar” aksiyasi o‘tkazildi.

Mobil ilovasi orqali SIM-kartaga buyurtma berish xizmati ishga tushirildi.

Ishbilarmon hamkorlar bilan o‘zaro hamkorlikni optimallashtirish maqsadida 2025-yil 24-yanvardan “O‘zbektelekom” AK boshqaruvi raisining qaroriga muvofiq IVR (Interactive Voice Response) xizmatini ko‘rsatish tartibini belgilovchi reglament amalga kiritildi.

“Wi-Fi Cloud” xizmati uchun to‘lovni mobil hisob orqali amalga oshirish imkonini beruvchi yangi funksional joriy etildi.

Uztelecom Cloud deb nomlangan yangi xizmatni ishga tushirish orqali o'z takliflari doirasini kengaytirdi. Ushbu xizmat bulutli ma'lumotlar markazi sohasidagi zamonaviy yechim bo'lib, mijozlarga ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi.

"Telecom-charge" platformasi orqali elektromobillarni quvvatlantirish xizmatlarini taqdim qiluvchi yangi funksional joriy etildi.

"O'zbektelekom" AKning telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlar uchun "1C: Fresh" xizmati ishga tushirildi. "1C: Fresh" - bu foydalanuvchilarga mahalliy o'rnatish zaruratisiz internet orqali korxonalarning biznes jarayonlarini hisobga olish va boshqarishni avtomatlashtirish uchun SaaS modeli bo'yicha "1C" dasturiy mahsulotlariga (Buxgalteriya, ERP va boshqalar) kirishni ta'minlaydigan bulutli xizmatdir.

"UZTELECOM DISK" xizmati ishga tushirildi. "O'zbektelekom" AK tomonidan taqdim etiladigan bulutli saqlash xizmati bo'lib, foydalanuvchilarga o'z shaxsiy fayllari (fotosuratlar, videolar, hujjatlar, musiqa va boshqa turdagi raqamli ma'lumotlar)ni xavfsiz saqlash, ulardan masofadan turib foydalanish, yuklash, ulashish va turli qurilmalar o'rtasida sinxronlashtirish imkonini beradi.

Mobil aloqa tarmog'iga ulangan abonentlar uchun "Premium Gold" obunasi joriy etildi. Ushbu xizmatda qo'shimcha xizmatlar to'plami taqdim etiladi.

"Brainer GPT" xizmati ishga tushirildi. Bu xizmat kattalar va bolalar uchun sun'iy intellekt asosida yaratilgan universal veb-portal bo'lib, har bir foydalanuvchiga uning ehtiyojlariga moslashgan holda, o'qishga, ijod qilishga va intellektual rivojlanishga, o'quv predmetlari bo'yicha vazifalar yechishga, yangi g'oyalar yaratishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va yangi bilimlar olishga yordam beradi va ularning barchasi qulay interaktiv formatda amalga oshiriladi.

"MyMusic" xizmati ishga tushirildi. MyMusic - Android va iOS platformalari uchun mo'ljallangan mobil ilova bo'lib, undan faqat AK "Uztelecom" abonentlari foydalanishi mumkin. Ilova orqali mahalliy va xorijiy ijrochilarning musiqalarini onlayn tinglash hamda oflayn foydalanish uchun yuklab olish, janrlar bo'yicha saralash, pleylistlar yaratish va tavsiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud.

"Game Zone" xizmati ishga tushirildi. GameZone o'yin internet portal - MyUTC mobil ilovasi orqali foydalanuvchilarga turli xil o'yinlardan foydalanish imkonini beruvchi interaktiv xizmat hisoblanadi. Portal keng auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanishda qulay va intuitiv tushunarli interfeysga ega.

"PUBG" xizmati ishga tushirildi. Abonent ushbu xizmatga 100 000 so'm to'lov evaziga ulanganida, unga faqat "PUBG" o'yini doirasida foydalanish uchun 100 GB hajmdagi Internet-trafik taqdim etiladi.

"Travel AI" xizmati ishga tushirildi. Travel Quiz - foydalanuvchilarga turizm, tarix, madaniyat hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha kunlik savollar orqali o'z bilimlarini sinovdan o'tkazish imkonini beruvchi innovatsion interaktiv xizmat.

"Caloria AI" xizmati ishga tushirildi. Caloria AI - sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan xizmat bo'lib, ovqat mahsulotining fotosurati asosida undagi taxminiy kaloriya

miqdorini aniqlash imkonini taqdim etadi. Xizmat foydalanuvchilar uchun qulay va samarali yechim sifatida ishlab chiqilgan.

“MyUzbekistan” xizmati ishga tushirildi. MyUzbekistan - bu O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab sayohat qilish jarayonida foydalanuvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan raqamli platforma. Ilova asosiy sayyohlik obyektlari, jumladan, restoranlar, mehmonxonalar, dam olish joylari va o‘tkazilayotgan tadbirlar haqida bir joyda ma’lumot olish imkonini beradi.

“O‘zbekiston” radiokanalining “Shu kunning mavzusi” eshittirishida “O‘zbektelekom” AK Axborot xizmati rahbari Timur Mamadjanov ham ishtirok etib, respublika bo‘yicha Internet qamrovi darajasi, shu maqsadda olis hududlarda amalga oshirilgan ishlar va telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanishda aholiga yaratilayotgan qulayliklar haqida ma’lumot berildi

Qonunchilikdagi yangiliklar my.gov.uz da raqamli servislardan foydalanish imkoniyati yaratildi:

“UZTELECOM ogohlantiradi: kiberqalloblardan ehtiyot bo‘ling!” mazmunidagi reportaj tayyorlandi;

Soha xodimlari “Bor mehrimiz senga, bolajon” donorlik aksiyasida ishtirok etishdi;

“O‘zbektelekom” AK tizimidagi yangiliklar yuzasidan “O‘zbektelekom” AK Axborot xizmati rahbari Timur Mamadjanov ishtirokida brifing o‘tkazildi.

“Telefonda gaplashish uchun shu cho‘qqiga chiqardik”— qishloqlarda aloqa, internet qanday? mavzusida reportaj joylashtirildi.

Buxoro viloyatida sohaga oid murojaatlar yuzasidan sayyor qabul o‘tkazildi.

Sayyor qabul: Baliqchi tumanida aholi murojaatlari o‘rganildi.

2025 – “O‘zbektelekom” AK faoliyatining birinchi choragi yuzasidan brifing “O‘zbektelekom” AK Axborot xizmati rahbari Timur Mamadjanov ishtirokida.

Sayyor qabul: Xorazm viloyatida aholining talab va takliflari o‘rganildi.

International Wholesale Telecom Congress (IWTC) xalqaro forumi tashkil etildi va o‘tkazildi.

UZTELECOM: Buvayda yoshlari bilan erkin muloqot o‘tkazildi.

“TalabaExpo-2025” ko‘rgazmasida ishtirok etildi.

“O‘zbektelekom” AK Axborot xizmati rahbari Timur Mamadjanov ishtirokidagi brifingda Kompaniyaning yarim yillik faoliyati davomida erishilgan natijalar, taraqqiyot odimlari va yangiliklar sarhisobi bo‘yicha ma’lumot berildi.

Sayyor qabul: Forish tumanida aholi murojaatlari ko‘rib chiqildi.

“UZTELECOM yangilanishi — raqamli hayotning yangi bosqichi”. “O‘zbektelekom” AK axborot xizmati rahbari Timur Mamadjanov “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” nashri rasmiy saytiga intervyu berdi.

“O‘zbektelekom” AK Markaziy Osiyoda ekologiya, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv sohalarida barqaror rivojlanish bo‘yicha yuqori ESG-reytinglardan biriga sazovor bo‘ldi.

UZTELECOM - ICT Week Uzbekistan 2025 hamkori! UZTELECOM MDHda birinchi bo‘lib ICTWEEK 2025da U6G (5G-Advanced) texnologiyasini namoyish etmoqda.

“O‘zbektelekom” AKning ICTWEEK 2025 haftaligi doirasidagi ishtiroki 10 dan ortiq OAVlarda keng yoritildi.

Sayyor qabul: navoiyliklar murojaatlari yechim topdi.

Kiberxavfsizlik va raqamli texnologiyalar bo‘yicha xalqaro konferensiya.

KOD IB va Uztelecom hamkorligida “KOD IB | TASHKENT 2025” xalqaro konferensiyasi.

UZTELECOM va HPE Networking: raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt rivojida yangi bosqich.

UZTELECOM va Winncom Technologies: innovatsion tarmoq yechimlari bo‘yicha memorandum imzolandi.

“O‘zbektelekom” va “Ribbon Communications” kompaniyalari kiberxavfsizlikni kuchaytirish hamda anti-spoofing.

“O‘zbektelekom” AK tomonidan Chimboy tumanida navbatdagi sayyor qabul o‘tkazildi

“O‘zbektelekom” AK xalqaro moliya bozorida yangi bosqichga chiqdi – “Fitch Ratings” Kompaniyaga barqaror prognozli “BB” reytingini berdi.

Brifing: 2025-yilning asosiy voqealari.

Qurilishlar manziliy ro‘yxatiga va kapital ta‘mirlash rejasiga kiritilgan loyihalarning bajarilishi

“O‘zbektelekom” AK tomonidan 2025-yil yakuniga ko‘ra 2025-yil qurilishlar manziliy dasturiga kiritilgan loyihalar doirasida jami 74 975 kmdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari tashkil etilgan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida Respublikamizning barcha hududlari bo‘ylab axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va keng polosali kirish tarmoqlari orqali aholini sifatli telekommunikatsiya xizmatlari bilan ta‘minlash erishildi.

“O‘zbektelekom” AK tomonidan 2025-yil yakuniga tashkil etilgan OTAL bo‘yicha ma‘lumot

T/r	Hudud	Magistral aloqa kabeli uzunligi (km)	Drop aloqa kabeli uzunligi (km)	Jami tortilgan OTAL uzunligi (km)
1	Toshkent shahri	1 002	2 942	3 945
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 971	3 805	5 776
3	Andijon viloyati	2 244	3 990	6 235
4	Buhoro viloyati	1 714	4 780	4 114
5	Jizzah viloyati	2 118	1 995	4 114
6	Qashqadaryo viloyati	2 711	3 210	5 922
7	Navoiy viloyati	1 178	2 171	3 349
8	Namangan viloyati	1 629	4 314	5 944
9	Samarqand viloyati	3 221	5 111	8 333

10	Surxondaryo viloyati	1 855	3 716	5 603
11	Sirdaryo viloyati	796,6	1803	2 600
12	Toshkeny viloyati	1 992	2 638	4 631
13	Farg‘ona viloyati	2 006	4 579	6 586
14	Xorazm viloyati	1 696	3 744	5 441
Jami:		26 170	48 805	74 975

Taqdim etilayotgan aloqa xizmatlari sifati

“O‘zbektelekom” AKda telekommunikatsiya tarmoqlarida texnik ekspluatatsiyani yaxshilash va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatinı yanada oshirish dasturida belgilangan vazifalarga asosan telekommunikatsiya tarmog‘idagi stansiya va liniya inshootlarini ta‘mirlash, liniya-kabel xo‘jaligini muhofazasini ta‘minlash, aloqa kabellari va tarqatuvchi javonlarni profilaktika qilish va tartibga keltirish hamda boshqa bir qator ishlar olib borildi.

Olib borilgan ishlar natijasida 2 480 ta tarqatish javonlari, 42 000 ta YaKG/KRTlar, 21 000 ta telefon quduqlari, 47 400 ta aloqa ustunlari, umumiy uzunligi 6 300 km havo aloqa liniyalari va 3 300 km abonent kirish simlari, shuningdek, 1 800 ta optik javonlar, 5635 ta FTTb javon hamda qurilmalar, 116 245 ta splitter, 6 000,5 km abonent kirish simlari texnik me‘yorlarga keltirildi va ta‘mirlandi.

Magistral va mahalliy aloqa liniyalari tarmog‘ining butligini, liniya kabel ho‘jaligini himoyasini taminlash maqsadida, MTP, QFY va MFY yig‘inlarida “Aloqa kabellarining shikastlanishiga yo‘l qo‘ymang” mavzusida ommaviy uchrashuvlar tashkillashtirildi va dalolatnoma/fotofaktlar asosida rasmiylashtirildi. Korxona, tashkilotlar hamda aholi o‘rtasida keng qamrovli tushuntirish va ogohlantirish ishlarini olib borish maqsadida, “Aloqa kabellarining shikastlanishiga yo‘l qo‘ymang” rukni ostida Viloyat teleradiokompaniyalari bilan o‘zaro kelishuv asosida 385 marotaba televideniya va radioeshittirishlar orqali teleroliklar uzatildi.

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan tegishli tashkilotlarga magistral va tumanlararo tashkil etilgan optik tolali aloqa liniyalarini muhofaza hududlari yaqinida tegishli tashkilotlar hamda tuman hokimliklari tomonidan madaniy-maishiy inshootlar, turar-joy binolar uchun yer ajratish, obodonlashtirish ishlari uchun yer maydonlarida har qanday qurilish, qazish va tekislash ishlarini olib borish jarayonida, Kompaniya va filiallari bilan kelishgan holda, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonun va me‘yoriy hujjatlarga asoslanib, o‘rnatilgan tartibda texnik shartlar orqali ishlarni olib borilishini ta‘minlash lozimligi yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Aloqa liniyalar o‘tgan hududlarda ogohlantirish va muhofaza ishlari olib borish bo‘yicha:

- 7 464 ta Mexanizm egalariga berilgan yozma ogohlantirish xatlar soni;
- 10 486 ta Ro‘yxatga olingan Qishloq xo‘jaliklari va qurilish tashkilotlari soni;
- 31 736 ta uy-joy yer egalariga berilgan yozma ogohlantirish xatlar soni;
- 2 180 ta Yangi o‘rnatilgan ogohlantirish va o‘lchov ustunchalari soni;
- 1 500 ta Yangi o‘rnatilgan ogohlantirish belgilar (tablichka) soni;

- 62 455 ta Qayta ta'mirlangan ogohlantirish va o'lchov ustunchalari soni;
- 20 085 ta Qayta ta'mirlangan belgilar (tablichka) soni;
- 1 419 ta MTP, QFY va MFYlarda o'tkazilgan ommaviy uchrashuvlar soni.

Kompaniyada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan moliyaviy hisobot

Hisobot davrida "O'zbektelekom" AK tomonidan olingan jami daromadlar (QQSsiz) 11 716,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115 foizni tashkil etdi.

1-jadval. Jami daromadlar tarkibi (QQSsiz), mln. so'm

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2024-yil amalda	2025-yil		Reja baj.%	O'sish sur'ati %
			reja	amalda		
1	Asosiy faoliyatdan olingan daromad	8 964 717	10 374 060	10 512 797	101%	117%
2	Boshqa daromadlar	166 015	68 800	239 758	348%	144%
3	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	1 065 883	726 994	963 642	133%	90%
	Jami	10 196 615	11 169 854	11 716 197	105%	115%

Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar 10 512,8 mlrd. so'mni tashkil etdi, biznes-rejaning bajarilishi 101 foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 17 foizni tashkil etdi.

2-jadval. 2025-yil xarajatlari, mln. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	2024-yil	2025-yil		Xarajatlar ulushi %	O'sish sur'ati %
		Reja	Amalda		
A	1	2	3	4	5
Ishlab chiqarish xarajatlari	6 340 150	7 298 314	6 729 648	61%	106%
Davr xarajatlari, jami:	2 302 170	2 263 652	2 591 940	24%	113%
Sotish xarajatlari	674 148	746 818	878 768	8%	130%
Ma'muriy xarajatlar	556 687	696 994	697 228	6%	125%
Boshqa operatsion xarajatlar	1 071 334	819 840	1 015 544	9%	95%
Moliyaviy faoliyat xarajatlari	1 455 875	1 499 228	1 652 955	15%	113%
Jami	10 098 194	11 061 194	10 974 142	100%	109%

Kompaniya bo'yicha ishlab chiqarish tannarxi xarajatlari 6 729 mlrd. so'mni tashkil etib, biznes-rejada belgilangan ko'rsatkichlar 92 foizga bajarildi. Jami xarajatlarning 61 foizini tashkil etadi.

3-jadval. Kompaniyaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili, mln. so'm

№	Ko'rsatkichlar	2024-yil	2025-yil		Reja baj.%	O'sish sur'ati
			reja	amalda		
010	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	8 964 717	10 374 060	10 512 797	101%	117%
020	Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	6 340 150	7 298 314	6 729 648	92%	106%
030	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi	2 624 567	3 075 746	3 783 149	123%	144%
040	Davr xarajatlari	2 302 170	2 263 652	2 591 540	114%	113%
050	Sotish xarajatlari	674 148	746 818	878 768	118%	130%
060	Ma'muriy xarajatlar	556 687	696 994	697 228	100%	125%
070	Boshqa operatsion xarajatlar	1 071 334	819 840	1 015 544	124%	95%
090	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	166 015	68 800	239 758	348%	144%
100	Asosiy faoliyatning foydasi	488 412	880 894	1 431 368	162%	293%
110	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami	1 065 883	726 994	963 642	133%	90%
120	Dividendlar shaklidagi daromadlar	182 801	0	5 213		3%
130	Foizlar shaklidagi daromadlar	16 088	18 000	47 647	265%	296%
140	Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha daromadlar	0	0	0		
150	Valyuta kursi farqidan daromadlar	866 995	708 194	910 782	129%	105%
160	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	0	800	0	0%	
170	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, shu jumladan:	1 455 875	1 499 228	1 652 954	110%	113,5%
180	Foizlar shaklidagi xarajatlar	470 998	626 296	561 846	90%	119%
190	Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	1 123	294	2 535	862%	226%
200	Valyuta kursi farqidan zararlar	919 434	822 637	1 044 050	127%	114%
210	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	64 320	50 000	44 523	89%	69%
220	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	98 420	108 660	742 055	683%	754%
240	Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	98 420	108 660	742 055	683%	754%
250	Daromad (foyda) solig'i	56 790	31 511	151 149	480%	266%

270	Xisobot davrining sof foydasi (zarari)	41 630	77 149	590 906	766%	1 419%
	Jami daromadlar	10 196 615	11 169 854	11 716 197	105%	115%
	Jami xarajatlar	10 098 194	11 061 194	10 974 142	99%	109%


Eksport xizmati ko'rsatkichlarining bajarilishi

2025-yil yakunlari bo'yicha Kompaniya tomonidan eksport xizmati rejasi 100 foizga bajarilgan.

Kompaniya xorijiy aloqa operatorlariga ko'rsatiladigan xalqaro xizmatlar hajmini oshirish (tranzit xizmatini ko'rsatish) orqali hamda xizmatlar sifatini oshirish maqsadida bir qator xalqaro kompaniyalar bilan imzolangan shartnomalar asosida xalqaro aloqa kanallari tezligi va hajmi oshirildi. Shuningdek, yangi hamkorlar bilan imzolangan shartnomalar doirasida yangi yo'nalishlardagi xalqaro Internet kanallar tashkil etildi.

Xalqaro paketli kommutatsiya markaziga ulangan operator va provayderlar uchun tashqi 1 Mbit/s Internet kanal narxi 30 020 so'mgacha tushirildi.

1-diagramma. 1 Mbit/s tezlikdagi Internet narxining o'zgarishi



Kadrlar strukturasi va mehnatga haq to'lash masalasi

2025-yil yakuni holatiga jami xodimlar soni 13 609 nafarni tashkil etib, ulardan 2603 nafari (20%) ayollar, 2793 nafari (21%) 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanadi.

16-jadval. Personal to'g'risida ma'lumot

Ma'lumoti bo'yicha	Ma'muriy boshqaruv xodimlari	Asosiy faoliyat xodimlari	Jami
Oliy ma'lumotli	464	4020	4484
O'rta maxsus ma'lumotli	16	6781	6797
Umumiy o'rta ma'lumotli	0	2328	2328
Jami	480	13129	13609

2025-yil yakuni holatiga respublika va xorijiy o'quv markazlarida jami malaka oshirgan hamda qayta tayyorlangan xodimlar soni **1535 nafarni** tashkil etib, **2663 mln. so'mdan** ortiq miqdorda mablag' sarflangan. Shundan,

xodimlarni maqsadli tayyorlash bo'yicha: respublika ta'lim muassasalarida – **18 nafar**; xorijiy ta'lim muassasalarida – **8 nafar**;

malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha: respublika malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazlarida - **1418 nafar**; xorijiy malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazlarida - **91 nafar**.

Shuningdek, **6823 nafar** xodimlar uchun korxonaning o'zida seminarlar, konferensiyalar, chet tili va texnik o'quv mashg'ulotlari hamda amaliy tajriba o'ttirish mashg'ulotlari tashkil etilgan.

17-jadval. Kadrlar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlangan xodimlarning soni

№	O'quv muassasasi, malaka oshirish markazlari nomi	2025 yil rejasi		2025 yil bajarilishi		Bajarilishi %
		Kishi	Ming so'mda	Kishi	Ming so'mda	
1.	Oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni maqsadli tayyorlash tadbirlari	31	1 295 600	26	897 593	84
2.	O'quv markazlarida malaka oshirish tadbirlari	1 834	2 654 596	1 509	1 765 806	82
3.	Korxonaning o'zida tashkil etiladigan o'quv kurslari va mashg'ulotlari	3 193	669 797	6 823	-	214
Jami		5 058	4 619 993	8 358	2 663 400	165

2025-yilda "O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markazi" filiali tomonidan tashkillashtirilgan **32 ta** malaka oshirish kurslarida jami **554** nafar



rahbar va muhandis-texnik xodimlar ishtirok etishdi. Ularning **510** nafari “O‘zbektelekom” AK va uning tarkibidagi filiallar, **44** nafari boshqa korxona va tashkilotlar rahbar va muhandis-texnik xodimlaridir. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli bitirgan mutaxassislarga “O‘zbektelekom” AK sertifikatlari topshirildi. Shuningdek, joriy yilda tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy dasturlar va **7 ta** o‘quv seminarida “O‘zbektelekom” AK va uning tarkibidagi filiallardan **1177 nafar** rahbar va mutaxassis xodimlar ishtirok etdilar.

Filial tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida iqtisodiyotning turli sohalaridan, shuningdek axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasi korxona va tashkilotlarining yetuk mutaxassislari, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, turli o‘quv markazlari mutaxassislari, NEC (Yaponiya), Huawei (Xitoy), ZTE (Xitoy) va Iskratel (Slovakiya) kabi xorijiy kompaniyalarning mutaxassislari mos ravishda tegishli o‘quv kurslarini o‘tkazish uchun jalb qilingan.

Shu bilan birga, Kompaniyada faoliyat yuritayotgan o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlarning **522 nafari** Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarida, **149 nafari** Toshkent shahridagi Puchon universitetida **793 nafari** boshqa oliy ta’lim muassasalarida turli yo‘nalishlar bo‘yicha sirtqi ta’lim shaklida tahsil olmoqda.

Ish haqqi

		2024-yil 1 xodimga 1 oyda o‘rtacha	2025-yil 1 xodimga 1 oyda o‘rtacha	O‘sish surati
O‘rtacha xodimlar soni	nafar	16 611	13 796	83%
O‘rtacha ish haqi	so‘m	9 479 944	10 479 256	111%
Kompensatsiya va ijtimoiy to‘lovlar	ming. so‘m	179 769	164 209	91%
Mehnat staji uchun qo‘shimcha to‘lovlar	ming. so‘m	540 699	589 743	109%
Rag‘batlantiruvchi to‘lovlar	ming. so‘m	4 358 921	5 017 476	115%
Mehnat ta’tili uchun to‘lovlar	ming. so‘m	12 831 091	11 980 065	93%



Kompaniyada transformatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

- KPMG xalqaro konsalting kompaniyasi bilan birgalikda Kompaniyaning 2023 va 2024-yillar uchun Barqaror rivojlanish (Sustainability/ESG report) hisobotlari tayyorlandi va Kompaniyaning rasmiy veb-sahifasida e'lon qilindi;
- Kompaniyaga Sustainable Fitch xalqaro reyting agentligidan level 2 (73) ball ESG reytingi berildi;
- Fitch xalqaro reyting agentligidan “BB” Stable outlook darajasida kredit reyting olindi;
- Avgust oyida Kompaniya dunyo bo'ylab eng yirik korporativ barqarorlik tashabbuslaridan biri bo'lgan BMT Global Kelishuvi (UN Global Compact)ga a'zo sifatida qabul qilindi.
- Kompaniyaning 2025–2030 yillarga mo'ljallangan ESG sohasidagi rivojlanish strategiyasi ishlab chiqildi.

Kompaniyaga 2025-yil davomida jami 29 445 ta hujjat kelib tushgan va nazoratga olingan

№	Kompaniya	Jami topshiriqlar	Edo.ijro tizimidan kelib tushgan	Elektron pochta tizimi orqali	e-xat tizimi orqali kirim qilingan	Xdfu grifli hujjatlar	Nazorat ostidagi hujjatlar	Muddati mavjud, Jarayondagi topshiriqlar	Edo.ijro tizimida muddati o'tgan topshiriqlari
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon, Qaror va farmoyishlari ijrosi, Hukumat qaror va farmoyishlari ijrosi	143	143	-	-	-	39	39	-
2	Kirim qilingan hujjatlar	17357	2673	12754	1664	2042	2673	151	-
3	Kompaniyadan chiqish xatlari	4981	-	-	-	-	-	-	-
4	Buyruqlar	614	-	-	-	-	-	-	-
5	Farmoyishlar	591	-	-	-	-	-	-	-
6	Ichki xizmat yozishmalari	3622	-	-	-	-	-	-	-
7	Feldyeger xizmati orqali paketlar	2137	-	-	-	-	-	-	-
Jami		29445	2816	12754	1664	2042	2673	190	-

Kompaniyaga 2025-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan jami 4873 ta murojaat kelib tushgan bo'lib:

№	Kompaniya va filiallar	Jami masalalar	Jami natijasi tasdiqlangan	Qanoatlanirilgan	Umumiy tushuntirish berilgan	Rad etilgan	Ko'rmasdan qoldirilgan	Tugatilgan	Ma'lumot uchun
1	Ijroiya apparati	1 017	1 017	902	22	1	31	59	2
2	“O‘zMobayl” filiali (faoliyati tugatilgan)	6	6	6	0	0	0	0	0
3	Xorazm filiali (faoliyati tugatilgan)	70	70	67	2	0	1	0	0
4	Farg‘ona filiali (faoliyati tugatilgan)	87	87	78	9	0	0	0	0
5	Sirdaryo filiali (faoliyati tugatilgan)	30	30	30	0	0	0	0	0
6	Surxondaryo filiali (faoliyati tugatilgan)	148	148	143	2	1	0	0	2
7	Samarqand filiali (faoliyati tugatilgan)	165	165	149	14	0	0	2	0
8	Namangan filiali (faoliyati tugatilgan)	66	66	66	0	0	0	0	0
9	Navoiy filiali (faoliyati tugatilgan)	20	20	20	0	0	0	0	0
10	Qashqadaryo filiali (faoliyati tugatilgan)	194	194	183	6	0	0	0	5

11	Jizzax filiali (faoliyati tugatilgan)	59	59	58	1	0	0	0	0
12	Buxoro filiali (faoliyati tugatilgan)	71	71	59	8	0	4	0	0
13	Andijon filiali (faoliyati tugatilgan)	67	67	62	4	0	0	1	0
14	Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali (faoliyati tugatilgan)	116	116	111	5	0	0	0	0
15	“Toshkent shahar telefon tarmog‘i” filiali (faoliyati tugatilgan)	92	92	91	1	0	0	0	0
16	“Sharqiy” filiali (yangi tashkil etilgan)	302	302	294	6	0	1	0	1
17	“Markaziy” filiali (yangi tashkil etilgan)	801	801	776	20	0	4	1	0
18	“Janubi-G‘arbiy” filiali (yangi tashkil etilgan)	362	362	355	7	0	0	0	0
19	“G‘arbiy” filiali (yangi tashkil etilgan)	221	221	198	13	1	5	4	0
20	“Janubiy” filiali (yangi tashkil etilgan)	428	428	416	1	0	0	11	0
21	“Shimoliy” filiali (yangi tashkil etilgan)	235	235	222	13	0	0	0	0
22	“Kontakt markazi” MChJ	316	316	126	23	0	0	2	165
Jami		4 873	4 873	4 412	157	3	46	80	175

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4904-son Farmoni bilan davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslari, barcha darajadagi hokimlarga jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullarini, shu jumladan Xalq qabulxonalari tomonidan tashkil etiladigan qabullarni muntazam o‘tkazib borish vazifalari topshirilgan hamda ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, Kompaniya rahbariyati tomonidan 2025-yil davomida jismoniy va yuridik shaxs vakillari uchun sayyor qabullar tashkil etish bo‘yicha Kompaniyaning tegishli farmoyishi bilan tasdiqlangan sayyor qabullar jadvaliga muvofiq:

- Toshkent viloyati, Ohangaron tumanida;
- Farg‘ona viloyati, Quvasoy tumanida;
- Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanida;
- Xorazm viloyati, Qo‘shko‘pir tumanida;
- Andijon viloyati, Baliqchi tumanida;
- Buxoro viloyati, G‘ijduvon tumanida;
- Jizzax viloyati, Forish tumanida;
- Samarqang viloyati, Bulung‘ur tumanida;
- Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanida;
- Navoiy viloyati, Zarafshon tumanida;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanida;
- Namangan viloyati, Chust tumanida sayyor qabullar tashkil etildi.

Bundan tashqari, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 33-moddasida davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlarining uch yilda kamida bir marta malakasini oshirish;

- Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-oktabrdagi “Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 582-son qarorida vazirliklar va idoralar o‘zlarining murojaatlar bilan ish olib boruvchi xodimlarining malakasini oshirish ishlarini tashkil etish belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi hukumat topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida, 2025-yil 6-7-avgust kunlari Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan tashkil etilgan 12 soatga mo‘ljallangan “Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish” onlayn kursida Kompaniyaning yangi tashkil etilgan filiallarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash xizmatida faoliyat olib boruvchi jami 20 ta xodim ishtirok etdi va o‘z bilim ko‘nikmalari hamda malakasini oshirdi.

Kompaniyada xaridlar qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Kompaniya ehtiyojlaridan kelib chiqib tovar va xizmatlar xaridlari jarayonlarini amalga oshirishda quyidagi muhim vazifa va topshiriqlar bajarilmoqda:

- Kompaniya ijro apparati va filiallari ehtiyojlari uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish reja-jadvalini ishlab chiqish;

- Kompaniya ijro apparati hamda filiallardan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha qabul qilingan buyurtmalarga asosan xaridlarning tegishli tartib-taomili bo'yicha markazlashtirilgan holda amalga oshirilishini ta'minlash;

- tovarlar yetkazib berilishini tashkillashtirish;

- tovar, ish va xizmatlar xaridi bo'yicha tuzilgan shartnomalardagi majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, amaldagi shartnomalarning hisobi yuritilishini ta'minlash;

- import shartnomalari doirasida xarid qilinadigan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi va logistikasini tashkil etish.

Xaridlar departament faoliyatining asosiy maqsadi Kompaniya ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni eng maqbul sifat va narxda xarid qilish, shuningdek import qilinayotgan tovarlarga nisbatan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash orqali, mablag'larni iqtisod qilish hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

2025-yil uchun Kompaniyada 1,4 trln. so'mlik xaridlar amalga oshirildi (*2024 yilda ushbu ko'rsatkich mos ravishda 1,3 trln.so'mni tashkil etgan.*).

2025-yil davomida Kompaniya tarkibiy bo'linmalari va filiallari tomonidan elektron hujjatlar aylanmasi tizimi orqali tovarlar (ish, xizmatlar) xaridi bo'yicha jami boshlang'ich narxi 1,6 trln.so'm bo'lgan 2 184 dona elektron buyurtmanomalar taqdim etilgan bo'lib, ushbu buyurtmanomalar davlat xaridlarining tegishli tartib-tamoyillari orqali xarid qilinishi natijasida xaridlar summasi 1,4 trln.so'mni tashkil etgani holda Kompaniyaning 0,16 trln. so'm mablag'lari iqtisod qilinishiga erishildi.

2025-yil yakunlari bo'yicha xaridlarga oid 1,4 trln. so'mlik jami 7 857 dona shartnoma tuzildi. Jumladan:

davlat xaridlari elektron platformalari orqali - 1,2 trln.so'm (*jami xaridlarning 80,1%i*);

tender va tanlov orqali – 0,25 trln. so'm (*jami xaridlarning 17,4%i*);

yagona yetkazib beruvchilar hamda amaldagi qonunchilik talablari asosida to'g'ridanto'g'ri shartnomalar – 0,04 trln. so'm (*jami xaridlarning 2,5%i*).

Shuningdek, investitsiya loyihalalari doirasida import qilinayotgan tovarlar bo'yicha bojxona va soliq imtiyozlarining to'g'ri qo'llanilishi natijasida Kompaniyaning jami 229,6 mlrd. so'mi iqtisod qilindi.

Bundan tashqari, o'tgan yil davomida xarid elektron platformalarida tuzilgan va bekor qilingan shartnomalar bo'yicha jami 1,5 mlrd.so'm miqdoridagi jarimalar Kompaniya hisob raqamiga undirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son Qarori bilan amalga kiritilgan reyting baholashning 2024-yil yakuni bo'yicha natijalar O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tomonidan 2025-yilning I-choragida e'lon qilindi. Unga ko'ra "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) 82 ball to'plab "Yaxshi" baholandi. Bugungi kunda 2025-yil uchun reyting baholashda Kompaniyaning natijalarini yanada yaxshilash bo'yicha tegishli ishlar Komplaens departamenti tomonidan amalga oshirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 910-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda PF-270-sonli Farmoniga muvofiq Kompaniyaning Komplaens departamenti ochiqlik reytingi yuqori ko'rsatkichga erishish maqsadida Kompaniyaning Matbuot xizmati bilan birgalikda Kompaniya asosiy veb-sayti (<http://uztelecom.uz/>) yangilandi va qayta tuzildi.

Kompaniyaning ochiq ma'lumotlari va ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar "O'zbektelekom" AK faoliyatining ochiqlik ko'rsatkichlari" bo'limi yaratildi, Kompaniyaning barcha mas'ul tarkibiy bo'linmalaridan Ochiqlik indeksining 84 ta ko'rsatkichi bo'yicha ma'lumotlar to'plandi va umumlashtirildi hamda Kompaniya veb-saytiga joylashtirildi.

2024-yil natijalariga ko'ra, Kompaniyaning shaffoflik indeksi reytingi 96-o'ringan 54-o'ringa ko'tarildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitalarining elektron platformasiga ham joylashtiriladi.

2025-yilning may oyida Kompaniyaning yangi tahrirdagi Ustavi asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari Agentligining <https://e-anticor.uz/> platformasida baholandi. Baholash natijalariga ko'ra Kompaniyada 3 ta "Yuqori", 11 ta "O'rta" va 13 ta "Past" darajadagi xavf-xatar aniqlanib ularni bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar tasdiqlandi va tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Aniqlangan xatarlar darajasini pasaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar rejasiga asosan 2026-yilning fevral oyida o'tkazilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko'ra "Yuqori" - 2 ta, "O'rta" - 4 ta va "Past" - 21 ta funksiyalar tashkil qilgan. Bundan 2025-yil va 2026-yilda aniqlangan baholangan xavf-xatarlarni darajasi pasaydi.

Kompaniyaning 2025-yil 17-mart sanasidagi 120-son buyrug'i bilan "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma" hamda 2025-yil 14-aprelda 167-son buyrug'i bilan "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma"larni aktuallashtirildi va yangi tahrirlari tasdiqlandi.

Kompaniyaning 2025-yil 14-apreldagi 166-son buyrug'iga muvofiq Kompaniyada ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga asosida Korrupsiyaga qarshi menjment tizimini takomillashtirish maqsadida navbatdagi ichki audit o'tkazish uchun ichki auditorlar guruhi tashkil etildi va faoliyat natijadorligi tekshirildi.

Ijroiya apparatining departament, boshqarma, xizmat va bo'limlarida o'tkazilgan audit natijalariga ko'ra 24 ta nomuvofiqlik bayoni rasmiylashtirildi hamda o'rnatilgan tartibda muddat belgilanib bugungi kunga qadar 22 tasi bartaraf etildi, tizimni yaxshilash bo'yicha 35 ta tavsiyalar berildi va bundan 32 ta tavsiyalarda belgilab berilgan ishlar tegishli bo'linamalar tomonidan bajarildi.

2025-yil avgust oyida Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida "Cert International" sertifikatsiya organi tomonidan qayta sertifikatsiyalash bo'yicha auditdan muvofaqiyatli o'tdi. Audit natijalariga ko'ra Kompaniyaga ISO 37001:2016 xalqaro standarti bo'yicha muvofiqlik sertifikati taqdim etildi. Mazkur sertifikat talablariga ko'ra Kompaniya yiliga bir marotaba tashqi kuzatuv auditidan o'tishi lozimligini inobatga olib Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish va o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda monitoring-nazorat tadbirlarini tashkil etib borish ishlari davom ettirilmoqda.

Shuningdek, "Kontakt Markazi" MChJda ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari asosida 2025-yil 1-dekabrdan 5-dekabrga qadar o'tkazilishi belgilangan ichki auditda Kompaniyaning Komplaens departamentidan jalb qilingan xodim auditni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida ko'maklashish uchun qatnashdi hamda tegishli tushuntirish ishlari olib borildi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni hamda Kompaniyaning Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida nizomi asosida joriy yilda Kompaniya ijroiya apparatining boshqaruv xodimlari tomonidan 209 ta yillik, 46 ta ishga qabul qilingandagi va rotatsiya munosabati bilan 29 ta, jami 284 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya, Kompaniya tarkibidagi filiallar boshqaruv xodimlari tomonidan 443 ta yillik ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya to'ldirildi. Kompaniya bo'yicha jami 727 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida to'ldirilgan deklaratsiyalar Komplaens departamenti tomonidan to'liq tahlil qilindi.

Tahlil natijasida Kompaniyaning Qashqadaryo va Surxondaryo filiallarida yaqin qarindoshlarning bir biriga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunuvi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib Nizom talablari asosida Odob-ahloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasining tegishli qarori asosida tartibga solinishi belgilandi. Xodim boshqa bo'limga o'tkazildi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilish va Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchligini tekshirish bo'yicha joriy yil davomida 376 ta xarid jarayoni kontragentlari, 150 ta hamkor kontragentlar va 168 ta dillerlik kontragentlar tekshirildi.

Xarid jarayoni kontragentlarini tekshirish natijasida 342 ta ijobiy, 34 ta salbiy xulosa olindi. Salbiy xulosalarning 26 tasi o'zaro affillangan tashkilotlar ekanligi, 1 tasi ish faoliyati

xarid predmetiga to'g'ri kelmasligi, 8 tasi soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzдорlikni yashirganligi aniqlandi.

Komplaens departamenti tomonidan hamkor kontragentlarni tekshirish jarayonida 1 ta kontragent sanksiya ro'yhatiga kiritilganligi aniqlanib Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi oldi olindi.

Hisobot davrida Kompaniyaga 46 ta yangi xodim ishga qabul qilingan va ularning barchasi o'rnatilgan tartibda tekshirilgan.

Shuningdek, Kompaniyaning 2025-yil 17-mart sanasidagi 120-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "“O'zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma” asosida barcha yanga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni suhbatdan o'tkazish jarayonida Komplaens departamenti xodimlarining ishtiroki ta'minlandi.

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha umumiy o'quv kurslarda 659 ta xodimning malakasi oshirilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus kurslarda 35 nafar xodim o'qitilgan.

“Korrupsiyaga qarshi virtual akademiya”da o'qitilgan xodimlar soni 25 ta xodim o'quv kurslarida o'qib tegishli sertifikatlar qo'lga kiritdi.

2025-yil 22-sentabrdan 24-sentabrga qadar Kompaniyaning “TvaPRM” filialida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati” bo'yicha 49 ta xodim o'quv kurslarda ishtirok etib tegishli sertifikatlar qo'lga kiritdi.

Kompaniya xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish:

- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan biznes faolligi indeksini shakllantirish maqsadida, Kompaniyaning Marketing departamenti xodimlari tomonidan <https://quiz.fairtech.uz/test/40> saytida test sinovlari o'tkazildi.

Kompaniya xodimlarining Raqobat to'g'risidagi qonunchilikka oid bilim darajasini aniqlash maqsadida 2025-yilning fevral oyida 15 nafar xodim ishtirokida test sinovlari o'tkazildi, hamda natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga ma'lumot berildi.

Komplaens departamenti tomonidan Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari yuzasidan Kompaniyaning barcha tarkibiy bo'linmalarida o'z yo'nalishlari bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Integratsiyalashgan menejment tizimi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Kompaniyaning menejment tizimi samaradorligini oshirish hamda uning mahalliy va xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirish maqsadida joriy yilning 29-avgustida Kompaniya faoliyatini xalqaro ISO standartlari asosida Integratsiyalashgan menejment tizimi talablariga muvofiqlikni aniqlash bo'yicha 1-bosqichdagi sertifikatsiyalash auditini tashkil etildi. Audit natijasida tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib bajarilishi lozim bo'lgan ishlar aniqlab olindi.

Bundan tashqari, Kompaniyaning 2025-yil 22-avgust kuni tasdiqlangan 369-son buyrug'iga asosan ISO 14001 Ekologiya menejment tizimi, ISO 26000 Ijtimoiy ma'suliyat, ISO 27001 Axborot xavfsizligi menejment tizimi, ISO 45001 Sog'liqni saqlash va mehnat muhofazasi menejment tizimi va ISO 50001 Energiya menejment tizimlarini Kompaniya faoliyatida joriy

qilish rejalashtirildi hamda bir qator xalqaro standartlarning talablariga muvofiq Komplaens departamenti hamda ijroiya apparatining tegishli departamentlari va xizmatlari bilan birgalikda ushbu xalqaro standartlar asosida o'z yo'nalishi bo'yicha maqsadlar, chora-tadbirlar, siyosatlar, xavf-xatarlar, o'rnatilgan istiqbollari va yo'l xaritalar ishlab chiqildi hamda 1-bosqich tashqi auditiga tayyorgarlik korildi.

1-bosqich tashqi auditi "Cert International" sertifikatsiyalash organi tomonidan 2025-yil 29-avgustda o'tkazildi. Auditorlar tomonidan berilgan xulosaga ko'ra takomillashtirish imkoniyatlari aniqlandi, nomuvofiqliklar topilmadi.

2-bosqich tashqi auditi "Cert International" sertifikatsiyalash organi tomonidan 2025-yil 18-noyabrdan 21-noyabrga qadar o'tkazildi hamda ushbu auditda ham nomuvofiqliklar aniqlanmadi va barcha xalqaro standartlar bo'yicha ijobiy tavsiyalar belgilandi.

O'tkazilgan auditlar natijasiga asosan Kompaniya 2025-yil 27-noyabr kuni ISO 14001 Ekologiya menejment tizimi, ISO 26000 Ijtimoiy ma'suliyat, ISO 45001 Sog'liqni saqlash va mehnat muhofazasi menejment tizimi va ISO 50001 Energiya menejment tizimlari bo'yicha xalqaro muvofiqlik sertifikatini qo'lga kiritdi.

2025-yil 28-apreldan 1-mayga qadar ISO 14001:2015 "Ekologik menejment tizimi" xalqaro standarti talablari asosida Kompaniyaning 16 nafar rahbar hamda tegishliligi bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasi oshirilib "CERT academy" xalqaro trening kompaniyasi tomonidan tegishli sertifikatlarga ega bo'ldi.

2025-yil 26-maydan 29-mayga qadar ISO 45001:2018 "Sog'liqni saqlash va mehnat muhofazasi menejment tizimi" xalqaro standarti talablari asosida Kompaniyaning 21 nafar rahbar hamda tegishliligi bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasi oshirilib "CERT academy" xalqaro trening kompaniyasi tomonidan tegishli sertifikatlarga ega bo'ldi.

2025-yil 23-iyuldan 25-iyulga qadar ISO 50001:2018 "Energiya menejment tizimi" xalqaro standarti talablari asosida Kompaniyaning 19 nafar rahbar hamda tegishliligi bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasi oshirilib "CERT academy" xalqaro trening kompaniyasi tomonidan tegishli sertifikatlarga ega bo'ldi.

2025-yil 4-avgustdan 6-avgustga qadar ISO/IEC 27001:2022 "Axborot xavfsizligi menejmenti tizimi" xalqaro standarti talablari asosida Kompaniyaning 16 nafar rahbar hamda tegishliligi bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasi oshirilib "CERT academy" xalqaro trening kompaniyasi tomonidan tegishli sertifikatlarga ega bo'ldi.